

AFG'ONISTON VA POKISTONNING HUDUDIY NIZOLARI.

Kholboeva Zarifa Odil kizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro munosabatlar” fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Qudratli davlatlar tomonidan qilingan o'zgarishlar shu kungacha ham davlat va hattoki butun mintaqaga xavf solib kelmoqda. Avvaliga Britaniya keyinchalik SSSR ta'siri natijasida yuzaga kelgan chegaralarga bo'lish diniy kelishmovchiliklarga sabab bo'lib kelmoqda. Markaziy Osiyo ushbu holatni o'zaro hamkorlik orqali malum darajada tinchlantira olishi mumkin. Bu holat nafaqat boshqa davlatlar intervensiyasi balki “Tolibon” hukumati bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Kalit so'zlar: *Afg'oniston, Pokiston, “Tolibon”, Markaziy Osiyo, “ingiliz-afg'on” urushi, Dyurand chizig'i, Afg'on Islom Amirligi, hudud, chegara, Islom respublikasi.*

TERRITORIAL ISSUES OF AFGHANISTAN AND PAKISTAN.

Kholboyeva Zarifa

University of world economy and diplomacy

Senior student of International relation's faculty

Annotation

The changes made by powerful countries continue to threaten the country and even the entire region. At first, Britain divided them into borders, which were then established because of the influence of the USSR, causing religious disagreements. Central Asia can calm this situation to a certain extent through mutual cooperation. This situation is closely related not only to the intervention of other countries, but also to the "Taliban" government.

Key words: *Afghanistan, Pakistan, "Taliban", Central Asia, "British-Afghan" war, Durand Line, Afghan Islamic Emirate, territory, border, Islamic Republic.*

Kirish.

Avvalambor, Afg'oniston va Pokiston o'rtasida davlat chegaralari belgilanishi bu tarixan ingliz- afg'on urushlariga borib taqalib, lekin yettinchi asrlar atrofida bu hududga arab aholisi bostirib kirib kelishi va ayrim arablaning yashab qolishi aholi

etnik hayotiga ta'siri bilan bog'liqdir deydi yunon tarixchisi va faylasufi Gerodot¹. Ushbu voqea aholining diniy va demografik holatiga katta o'zgarishlar kiritgan holda, muammoning asl ildizi deyish mumkin. Chunki mana shu hodisa ikki davlat o'rtasida Pushtun xalqi muammosiga ham sabab bo'ladi deya Homeira Qaderi² o'z qarashlarini ushbu g'oyaga asoslaydi. Umuaman olganda, Afg'oniston davlati bilan eng katta chegaradosh mamlakat bu Pokistondir, bugungi kungi statistik ma'lumotlarga ko'ra, va ular o'rtasidagi chegara 2,640 kilometrni tashkil qilib, Dyurand chizig'idir. Va bunday nomlanishining sababi shuki 1893-yil 12-noyabr sanasida shartnoma imzolaniib, Britaniya tomonidan Mortimer Dyurand³, Hindiston fuqarolik xizmatining britaniyalik diplomati va Afg'oniston amiri Abdurrahmon Xon tomonidan o'zlarining tegishli ta'sir doiralari chegarasini belgilash maqsadida tashkil etilib, diplomatik munosabatlar va savdoni yaxshilashga xizmat qilishiga ishonishgan. Ammo ularning qarashlari qay darajada xatoligini keyinchalik vaqt ko'rsatdi va ko'rsatib kelmoqda. Bunga asoslanib, Mohammad Hassan⁴ keyinchalik aytadiki bu hatti harakati bilan Britaniya imperiyasi Afg'onistonni mustaqil davlat deb hisoblardi, garchi ular Afg'onistonning tashqi siyosati va diplomatik munosabatlarini o'zlari shaxsan nazorat qilishgan bo'lishsada. Shunday vaziyatda biz aytishimiz mumkinki Gerodot ushbu masalaning asl negizini ko'rsatib berishga boshqa tarixchilarga nisbatan maqbulroq fikr bildirgan deyishimiz mumkin.

Asosiy qisim

Afg'oniston va Pokistonning o'zaro hududiy chegaralari va uning natijasida kelib chiqayotgan muammolar.

Pokiston Afg'onistonning janubiy va sharqiy chekka hududlari bilan 1510 milya (2430 km) cho'zilgan ulkan chegaraga ega bo'lgan yagona davlatdir. Afg'onistonning Badaxshon, Nuriston, Konar, Nangarhor, Paktiya, Xost, Paktika, Zabol, Qandahor, Hilmand va Nimruz viloyatlari Pokiston chegarasiga to'g'ridan to'g'ri tutashgandir. Vaholangki bu Dyurand chizig'ida belgilangan chegarani Afg'oniston hech ham qabul qilmasdan kelmoqda chunki bu holatga Homid Karzay⁵ hukumati davomida shunday izoh keltiradi, - “ Ikki aka-uka o'rtasida nafrat devoridir”. Bundan kelib chiqqan holatda biz bilishimiz mukinki ushbu davlatlar o'rtasida o'zaro qardoshlik rishtalari mavjuddir. Ammo Britaniya hukumatining asl maqsadi nima edi ikki davlatni ajratishdan?

¹ Further information about the opinion of Heroudot on this site : <https://academic-accelerator.com/encyclopedia/durand-line>

² Further information about the opinion of Homeira Qaderi on thiz site : <https://www.radcliffe.harvard.edu/people/homeira-qaderi>

³ Further information about Mortimer Dyurand and the Durand line on this site : <https://topwar.ru/184170-avtor-linii-djuranda-i-ee-znachenie.html>

⁴ Further information about the opinion of Mohammed Haasen on this site: <https://ae.linkedin.com/in/mohammadhassanfcs>

⁵ Further information about the opinion of Homid Karzai on this site : <https://tribune.com.pk/story/2394011/karzai-urges-pakistan-to-avoid-threats-review-afghan-policies>

Balki ularni urushtirib qo'yish orqali Markaziy Osiyoni zaiflashtirishdir yoki shu orqali mintaqaga kirib kelish. Shu bilan bir qatorda Nikollo Makiavelli⁶ aytganidek “Ikki davlatni urishtirib, zaiflashuviga sabab bo'lib keyinchalik ularni o'ziga osongina bo'ysundirish” bu g'oyaga asoslangan holda ish yuritishganmi? Asl maqsadlari Sharqqa kirib borishmidi? Hududni o'ziniki qilib olmoqchi edimi yoki shunchaki vayronaga aylantirib, butunligicha talash va hamma yer osti va yer usti boyliklariga ega bo'lish? Nega biz bir din va mintaqa vakillari sifatida hali ham ushbu muammoga yechim topmadik? Bu nafaqat Markaziy Osiyo balki Yevro-Osiyo hattoki butun jahon uchun ham ta'sir qilib turgan chigal jumboqdir. Bitta chegaraviy chiziqning chizilishi ham hududiy ham diniy bo'linishga olib keldi deyishimiz mumkin chunki ular shia va sunniy diniy mahzablarga bo'linishadi kamiga pushtunlar muammosi ham izchillikni yanada kuchaytirmoqda chunki Afg'onistonda ko'plab millat vakillar istiqomat qilishini ham inobatga olishimiz zarur. Lekin hukumat o'zgarishi ham ko'pgina g'oyalarning almashinuviga olib keladi. Va bu holda SSSR davlatining Afg'onistonga hujumi ham ikki davlat chegaraviy muammolariga ma'lum miqdorda ta'sir etgan holda, butun musulmon xalqi qarashlarini ham o'zgartirib yubordi. “Afg'oniston urushi sivilizatsiyalar urushiga aylandi sababi butun musulmon dunyosi uni shunday qabul qildi” deya takidlaydi Samuel Xantington⁷. Bu jumla chuqur mazmunga ega bo'lib, agar Afg'onistonda urush bo'lsa, demak bu nafaqat ushbu davlatning o'ziga balki qoshnilariga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Pokiston esa eng katta chegaralari Afg'oniston bilan tutashgan va ularda har doim diniy muammolari ham bo'lgan Pushtun xalqi tufayli. Lekin 1980- yillar davomidagi SSSR ta'sirida bo'lgan Afg'oniston ko'plab aholi qatlamini Pokiston bilan chegaradosh va qisman pokiston hududiga evakuatsiya⁸ qiladi. Va bu ham davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik ham mavjud bo'lganligiga ishora qiladi ammo “Tolibon” harakati ham davlatlararo chegaraviy masalalarga salbiy ta'sir etmoqda. Bu hududiy muammoning ahamiyati shundan iboratki u etnik va diniy qaramaqarshiliklarga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham muhtaram prezidentimiz, Shavkat Miramonovich Mirziyoyev, BMT xalqaro assambeliysining 78-sessiysida so'zlagan nutqlarida Afg'oniston davlatiga ko'maklashish shu orqali esa mintaqa doirasida chegaraviy va diniy nizolarsiz tinch yashash g'oyasini ilgari surdilar. “Afg'on xalqining ko'p millatliligi - uning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro kuchli etnik va demografik bog'liqlik mavjudligidan nishonadir”, - deydi Ulug'bek Hasanov. Bu shuni anglatadiki hududiy chegara o'rnatishni faqat yer bilan belgilab bo'lmaydi va har doim etnik, demografik, diniy,

⁶ Further information about the opinion of Niccolò Machiavelli on this site: <https://eksmo.ru/articles/20-tsitat-iz-gosudarya-nikkolo-makiavelli-ID5829868/>

⁷Samuel X.F.Sivilizatsiyalar to'qnashuvi. - Midgard: nashr qilingan joy : “ACT”, 1996. - P. 464.

⁸ Evakuatsiya- aholini kutulmagan hujum vaqtida bir hududdan boshqasiga ko'chirish

siyosiy, geosiyosiy, iqtisodiy va boshqa ko'plab faktorlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

2003-yil iyul oyida Pokiston va Afg'oniston kuchlari chegara postlari ustida qurolli qarshilik holatida edilar negaki Afg'oniston hukumatining da'vo qilishicha, Pokiston harbiylari Afg'onistonning Mohmand tumani bilan chegaradosh Yaqubi hududida 600 metrgacha masofada bazalar o'rnatishgan. Alal oqibat Yaqubi va Yaqubi Kandao (Dovon) tumanlari Afg'oniston hududiga to'g'ri kelishi aniqlangan. 2007-yilda Pokiston Afg'onistonning janubiy Vaziristonidagi Angur Ada chegara bozori yaqinida bir necha yuz metr atrofida panjara va ustunlar o'rnatishadi, biroq Afg'on milliy armiyasi ularni tezda olib tashlashdilar va Pokiston harbiylarini o'qqa tuta boshlashdi. Pokistondagi yetakchilar faqatgina qurolli qarshilik orqali Tolibon jangarilarining hujumlari ikki xalq o'rtasida o'tib ketishining oldini olishning birdan bir yo'li ekanini aytishdi, biroq Afg'oniston prezidenti Hamid Karzay bu Islomobodning pashtun qabilalarini doimiy ravishda o'z tarafiga ajratish rejasi, deb hisoblashini o'z nutqida bayon etdi.

Amerika Qo'shma Shtatlari armiyasining maxsus kuchlari 2002-yildan boshlab Afg'onistonning Shkin shahrida, Angur Adadan yetti kilometr g'arbda joylashgan edi, davlatlararo munosabatlarni jilovda ushlab turish uchun joylashtirilhandi. Shunga qaramasdan 2009-yilda Xalqaro Xavfsizlik Kuchlari (ISAF⁹) va Amerika Markaziy razvedka boshqarmasi Dyurand liniyasining Pokiston tomonidagi terrorchilar nishonlarini urish uchun afg'on tomonidan uchuvchisiz havo apparatlaridan foydalanish usuliga o'ta boshladi. Natijada esa ko'plab gunohsiz insonlar hayotdan ko'z yumdi. Nega aynan ushbu chegara yillar davomida qon to'kilishiga sabab bo'lib kelmoqda? Agar Pokiston ushbu chegarani qabul qilsa, keyinchalik u Afg'oniston hukumatiga bo'ysunish sifatida qabul qilinish ehtimoli juda kuchli. Va bu yerda pushtun xalqining ham o'z davlatiga asos solishga harakat qilishi mumkin yoki umuman chegaralarni ochiq bo'lishi esa Pokistonga nisbatan terroristik aktlarning amalga oshirilishining kuchayishiga hattoki hozirgi amalga oshirilayotgan zo'rovonlik: maktab hattoki masjidlarda insonlar vafot etishi kabi holatlarning yanada kuchayishiga olib kelishi ham mumkin. Balki ikki davlat umumiy birga bo'lishi - barcha muammolarga yechimdir va o'zaro tinchlik o'rnatilishiga asos bo'la olar.

1800-yillarda o'rnatilgan chegara hali ham dolzarbligicha qolmoqda va qanday qilib uni hal qilish mumkinligi haqida afg'on hukumati shunday javob qiladi.

Afg'oniston prezidentining matbuot kotibi Aymal Fayziy¹⁰ 2012-yil oktabr oyida Durand liniyasi "Afg'oniston uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muammodir. Bu borada yakuniy qarorni hukumat emas, afg'on xalqi qabul qilishi mumkin", dedi.

⁹ ISAF- International Security Assistance Force

¹⁰ Further information about the opinion of Aymal Faizi on this site : <https://minorityrights.org/>

Nega hukumat emas aynan xalq qaror qabul qilishigina mumkin? Chunki afg'on va pokiston xalqi o'rtasida umumiy birlik ya'ni diniy faktor mavjud.

2017-yil 16-fevral kuni Pokiston Sexvandagi portlashdan keyin xavfsizlik chorasi sifatida Torxam va Chaman chegara punktlarini butunlay yopib qo'ydi. Biroz muddat o'tgandan so'ng esa, aniqrog'i 7 mart kuni chegarani avvalroq amaldagi vizalar bilan kesib o'tgan odamlarning o'z mamlakatlariga qaytishini osonlashtirish uchun chegara ikki kunga ochildi. Qaror Afg'oniston hukumatining "gumanitar inqirozni" oldini olish bo'yicha bir necha bor so'rovlaridan so'ng qabul qilingandi aslini olganda. Pokiston rasmiylarining xabar berishicha, chegara yana noma'lum muddatga yopilishidan oldin 24 ming afg'on Afg'onistonga, 700 pokistonlik esa Pokistonga qaytgan. 20 mart kuni Pokiston Bosh vaziri Navoz Sharif Afg'oniston-Pokiston chegarasi yopilganidan roppa rosa 32 kun o'tib "yaxshi niyat ishorasi"¹¹ sifatida qayta ochilishini taklif qildi. Bu ham bir siyosiy o'yin ya'ni chegara ochiq yoki yopiqligiga Pokistonning ham ta'siri borligini bildirish va Afg'onistondan kirib kelgan aholini mamlakatga qaytishiga ham sabab sifatida ko'rsatish mumkin. Bu albatta nimagadir javob tariqasida o'tkazilgan chunki siyosatda hech narsa o'z o'zidan sodir bo'lmaydi har bir narsaning asl sababi bor.

"Agar ular to'xtamasa, uning oqibatlarini natijasida mintqa biz bilan teng zarar ko'radi. O'tmishda biz yolg'iz azob chekkanmiz; bu safar hamma biz bilan qiynaladi.... Afg'onistonni etnik jihatdan bo'lish yoki uni zaiflashtirishga qaratilgan har qanday urinish qo'shni mamlakatlarda ham xuddi shunday holatni keltirib chiqaradi. Mintaqadagi barcha mamlakatlar bizdagi kabi bir xil etnik guruhlariga ega, shuning uchun ular bu safar boshqa to'p o'yini ekanligini bilishlari kerak"¹² deydi,- Homid Karzay. 2006-yil, fevral.

Xulosa: Lekin hali ham muammo o'z yechimini topmadi ammo bu boshqa davlatlarning azoblanishiga sabab bo'ldimi? Bu nizo orqali mamlakat o'zini o'zi yomonroq axvolga solmayabdimi? Ko'plab sanksiyalar nega Afg'oniston bo'ynidaligiga ham sabab shunda emasmi? Nega bu holatni Homid Karzay to'p o'yini deb atadi? Balki bu barcha cheklovlarga javob sifatida ularga ham qandaydir qarshi qurol tayyorlayotganini bildirmoqchidir. Lekin chigallikni yumshatish uchun faqat qurolli qarshilik yetarli emas. O'zaro hamjihatlik orqali ham barcha kelishmovchiliklarga barham berish mumkin. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi¹³ ham siyosiy ham hududiy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Balkim yagona hududiy zona yoki umumiy pul birligi o'rnatilishi yoki qo'shni

¹¹ Further information about the "Goodwill gesture" on this site : <https://www.dawn.com/news/1321704>

¹² The information about the speech of Homid Karzay : <https://ukdiss.com/examples/afghanistan-and-pakistan.php>

¹³ Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zidan) — bu suveren davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish yoki yaqinlashish jarayoni degan ma'noni anglatadi.

davlatlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilishi va kuchaytirilishi ushbu cheksiz muammolarning yechimlaridan biridir. Ushbu davlatlarni birlashtirib turuvchi omillardan biri bu dinda umumiylikka egaligidir va bu yaqin yillar ichida hamjihatlikka asos solishga sabab bo'lar va barcha nohaq to'kilayotgan qonlarga yakun yasar. Hozirgi vaqtda Rossiya Markaziy Osiyodan hamkor bo'lishidan manfaaddor va Xitoy esa Amerika Afg'onistondan chiqib ketgandan beri ushbu davlatga qaratilgan siyosat rejalrini o'zgartirmoqda. Shunday qaltiz vaziyatda Markasizy Osiyo davlatlarida o'zaro tinchlik va chegaravoy birlikning mavjud emasligi bu yaqin kelajakda yomon oqibatlarga olib kelishi tayin. Zero tinchlik orqali kuchli va aqilli siyosat yuritish barcha chegaradosh davlatlar manfaatlarini qamrab oladi. Shuning uchun ham by ikki davlat bu xalqlar 1991-1993-yillarda ko'tarilgan hududiy birlik go'yasini amalga oshirishi muammoning boshqa bir hal qilish yo'lidir. Hududiy yaxlitlikka ega bo'lish esa davlatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning yaxshilanishiga bu orqali esa aholi yashash tarzining osonlashuvi va chegaradosh mamlakatlar o'rtasida turism aloqalari ham yo'lga qo'yilishiga asos bo'lish ehtimoliggi ancha yuqoridir. Agar xalq birdamlik yoki chegara o'rnatilishini xoxlasa , hukumat xalqqa qarshi bo'lishi Markaziy Osiyoning o'zida zaif nuqtalarnig nafaqat yaratilishiga balki ko'payishiga ham olib kelishi mumkin va bu uch tomonlama ta'sirga ega : Amerika, Rossiya va Xitoy kabi global aktorlar uchun qulay fursatdan foydalanishga yaxshi imkoniyat xolos. Bundan tashqari, Afg'oniston va Pokiston o'rtasida aniq chegara bo'lsa , Pokiston orqali Afg'oniston Kashmir hududiga ham tahdid solishi mumkinligi va bu albatta Hindiston-Pokiston munosabatlariga , o'z o'rnida, hind- afg'on xalqlari o'rtasida munosabatlar chigallashuviga olib kelishi ehtimoli kuchlidir. Shunday holatda, hozirda Xitoy, boshqa davlatlar rad etayotganda, Afg'oniston davlatida o'z korxonalarini qurmoqda va yordam bermoqda faqatgina ularning xavfsizligigga tahdid qilishmasa va davlat yer osti va yer usti boyliklaridan ma'lum miqdorda foydalanishiga ruhsat olgan holda. Bu ham shuni bildiradiki agar Afg'oniston va Pokiston o'rtasida aniq chegara bo'lmasa yoki ular birlashishsa Xitoy Pokiston hududiga ham kirib borishga harakat qilish ehtimoli kuchlidir. Bu yerda nafaqat Xitoy balki Amerika va Rossiya davlatlari manfatllari to'qnashgan hududdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmed R.A.Taliban: Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia. - Nuriston. : Yale University press, 2010. - P. 274 .
2. Anna M.C. Crossing the Wire. -Kobul. : Casemate Publishers, 2013. - P.224.
3. 3. Abubakr S.M. Secret Schools Offer 'A Ray Of Hope' For Rural Afghan Girls [Online] // Radio Free Europe . 2023 Available at: <https://www.rferl.org/a/afghanistan-secret-schools-girls-education-taliban/32740641.html> (date of application: 19.12.2023)

4. Fiona T.O. Afghan refugees camps in Pakistan. - N. Y :Cornell University Press, 2013. - P. 439.
5. Hassan K.M. A Political And Diplomatic History of Afghanistan.- Kobul: Brill's Inner Asian library, 1901. - P. 259.
6. Homeira Q.Dancing in the Mosque: An Afghan Mother's Letter to Her Son. - Hilmand: HarperCollins B and Blackstone Publishing , 2022. - P. 224.
7. Jeff C.F. The Lieutenant Don't Know. - Havertown: Casemate, 2014.- P. 264.
8. Karmon E.D. Coalition between terrorist organisations:Revolutionaries, Nationalists And Islamists. - Boston: Brill Academic Pub, 2005. - P.425 .
9. Khaled.H. The kite runner. - Kobul: The Riverhead books, 2003. - P.371 .
- 10.Ron S.D. Afghanistan: 'Pashtunistan' Issues Linger Behind Afghan-Pakistani Row [Online] // Radio Free Europe 2006. Available at: <https://www.rferl.org/a/1067048.html> (date of application: 27.11.23)
- 11.Samuel X.F.Sivilizatsiyalar to'qnashuvi. - Midgard: nashr qilingan joy : “ACT” , 1996. - P. 464.
- 12.Seyma K.R. Afghanistan-Pakistan Border Dispute and Recent Developments [Online] // ANKASAM 2022. Available at: <https://www.ankasam.org/afghanistan-pakistan-border-dispute-and-recent-developments/?lang=en> (date of application: 02.12.23)
- 13.Yousaf M.F. The Battle for Afghanistan / M.F Yousaf , M.I Adkin. - Xost :Pen and Sword military, 2007. - P.592.
- 14.The Durand Line - A razor's edge between Afghanistan & Pakistan. (2018).
- 15.Available at: <https://www.efsas.org/publications/study-papers/the-durand-line-a-razors-edge-between-afghanistan-and-pakistan/> (date of application: 21.11.23)
- 16.Abid H. M. Pakistan says Afghanistan building ‘unlawful structures’ along tense border. (2023). Available at: <https://www.aljazeera.com/news/2023/9/11/pakistan-says-afghanistan-building-unlawful-structures-along-tense-border> (date of application: 29.11.23)